

О‘ЗBEK TILIDA KO‘MAKCHILAR TIZIMI VA ULARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

20-maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Sattorqulova Shalola To‘ychi qizi

shalolasattorqulova995@gmail.com

+998933210495

Annotatsiya: Bu maqolamiz orqali biz o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning ilmiy talqinlari, xususiyatlari, kelishiklar bilan sinonimlik xususiyatlarini o‘rganadi, o‘zbek tilshunosligida ko‘makchilarning ma‘nodoshlik tahlili, ko‘makchilarning semantik-sintaktik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Maqolada o‘zbek va dunyo tilshunosligida ko‘makchilarning o‘rganilishiga oid qarashlar, ko‘makchilashish, metaforik ma‘no ko‘chishi kabi hodisalar haqida so‘z yuritiladi

Kalit so‘zlar: ko‘makchilar, so‘z, til, qo‘shimcha ko‘makchilar, sof va vazifadosh ko‘makchilar, shakl, morfema, yordamchi so‘zlar kategoriyasi.

Yordamchi so‘zlar, ayniqsa, ko‘makchi so‘zlarni tahlilga tortar ekanmiz, biz avvalo, “so‘z” atamasiga diqqatimizni qaratamiz. Bir guruh olimlar ko‘makchilarning so‘z ekanini tan olmasligini, lekin bu xato fikr ekanligini asoslab beradi. “Yordamchi so‘zlar” deb ishlatishimizni, lekin ularning so‘z sifatida tan olmasligimizni; ko‘makchi so‘zlar ham mustaqil so‘z turkumlaridan kelib chiqqanligini rad etmasdan, ularning so‘z ekanligini rad etishimizni aytib o‘tadilar. Lekin ko‘makchilarning so‘z ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, otko‘makchilar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar, fe‘l-ko‘makchilar deyilgan atama har qanday ko‘makchini qaysi so‘z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. Bu holatni professor A.B.Pardayev quyidagicha izohlaydi: “Nafaqat ko‘makchilarni, balki boshqa yordamchi so‘zlarni ham so‘z deb hisoblamaslik “so‘z” atamasini “leksema” tushunchasi bilan almashtirishdan kelib chiqqan...”. Shu o‘rinda lug‘atlarga murojaat qilamiz. Azim Hojiyev “leksema” va “so‘z”ni, leksema - lug‘aviy ma‘no anglatuvchi unsur, so‘z - leksemaning shakl va mazmun bilan voqelangan ko‘rinishi”, - ekanligini izohlaydi.

Tilimizdagi ot va otlashgan soʻzlardan oldin kelib, ularni boshqa soʻzga (koʻpincha feʼlga) grammatik jihatdan tobelanishini taʼminlaydigan yordamchi soʻzlar koʻmakchilardir. Koʻmakchilar nutqda oʻzidan oldingi ot va otlashgan soʻzlarga vosita, maqsad, sabab, payt, makon kabi maʼno munosabatlari orqali birikib, ular bilan bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi. Shu xususiyatiga koʻra, kelishiklarning vazifadoshlari hisoblangan koʻmakchilar kelib chiqish asosiga koʻra: sof (bilan, uchun, kabi, singari, uzra, sayin. qadar), vazifadosh (tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, soʻng, tashqari, beri, koʻra, chogʻli) va qoʻshimchasimon (-day, -dek, -gacha) koʻmakchilardan tashkil topadi (R. Sayfullaeva. 2009: 269). Sanab oʻtilgan ushbu koʻrsatkichlar turkiy tillar, shuningdek, Oltoy oilasiga mansub deb qaraladigan koreys tiliga oid ishlarda ham qayd etiladi. Xususan, mazkur tilda koʻmakchilar soʻz va qoʻshimchasimon qorishqlikdan tashkil topishi eʼtiborga olinib “kelishik chastitsalari” sifatida, asos eʼtiboriga koʻra, “asliy (sobstvenno) koʻmakchilar” ot, sifat va feʼl koʻmakchilarga ajratiladi. Ushbu koʻmakchilar koreys tilida ham ot va otlashgan soʻzlardan keyin kelib, ularga vosita, maqsad, sabab, payt, makon kabi maʼnolarni orttirgan holda bitta gap boʻlagi vazifasini bajardi va kelishiklar bilan vazifadosh hisoblanadi (III. Назарова. 2021: 490).

Adabiy tilning boyib borishida tilimizning ichki imkoniyatlari hal qiluvchi rol oʻynaydi. Tildagi har qanday oʻzgarish, avvalo, leksik qatlamda koʻzga tashlanadi va shu qatlamda shakllanib boradi. Ayniqsa, istiqlol yillarida boshqa sohalardagi islohotlar kabi oʻzbek tili leksikografiyasida ham qator islohotlar boʻldi. Oʻzbek tilining izohli lugʻati yangidan nashr etildi va bu lugʻat oʻz tarkibiga 80 mingdan ortiq soʻzni kiritdi. Buning natijasida qator tadqiqotlar yaratildi. Leksik qatlamni oʻrganish koʻlami yanada ortdi. Bu tadqiqotlarda tilni leksik-semantik, lingvostatistik va leksikografik usullarda tadqiq qilishga alohida eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, koʻmakchilar ingliz tilidagi “preposition / predlog”lar bilan ham muayyan oʻxshashliklarga ega. Biroq oʻzbek tili morfologik jihatdan agglutinativ tuzulishli boʻlgani bois, ushbu lisoniy birliklar “ort vosita” sifatida Hind Yevropa tillaridagi “old vosita”lardan, yaʼni “preposition / predlog”lardan farqlanadi (A.

Сайфуллаев. 2019:11). Ko‘makchilarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari, ularning o‘zbek va turkiy tillar tizimida tutgan o‘rnini belgilash, alohida turkum sifatida tasniflash, kelib chiqish asoslariga ko‘ra tavsiflash o‘tgan asrning ikkinchi yarimlarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlardan boshlangan. Xususan, U. Tursunov (У.Турсунов. 1947), A. N. Kononov (А.Н. Кононов. 1951), N.A.Baskakov (Н.А. Баскаков.1952), J.Murataliyev (Ж.М. Мураталиев.1958), N.K.Dmitriyev (Н.К. Дмитриев. 1962), M.I.Xadjilayevlar (М.И.Хаджилаев. 1962), T. Rustamov (Т.Рустамов. 1965) tomonidan chop qilingan manbalar bu borada olib borilgan dastlabki izlanish natijalari e‘lon qilingan.

Ko‘makchilar tuzilishi va lisoniy mohiyatiga ko‘ra sof, vazifadosh va qo‘shimchasimon turlardan tashkil topishidan qat‘iy nazar, ularning kelib chiqish manbai mustaqil so‘zlar ekani barcha manbalarda yakdillik bilan e‘tirof etiladi. T. Rustamovning “Sof ko‘makchilar” nomli risolasida esa ushbu etimologik asos sof ko‘makchilarning kelib chiqish manbalari vazifadosh shakllar singari mustaqil so‘zlarga (asosan ism guruhiga mansub so‘zlarga) borib taqalishi (bilan: bir+la, -lan fe‘l yasovchi qo‘shimchalarning birikishidan, uchun: uch+un vosita kelishigining ko‘shimchasi birikishidan, kabi: “forma, shakl” ma‘nosidagi kab, keb, kib+i egalik ko‘shimchasining birikishidan) o‘zbek tili tarixining XIII-XX asrlariga oid lug‘atlar va badiiy manbalarga tayanilgan holda dalillangan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ko‘makchining leksik ma‘nosi o‘zi birikib kelayotgan mustaqil ma‘noli so‘zning leksik ma‘nosiga bog‘liq. mustaqil va yordamchi so‘zlarda leksik va grammatik ma‘no mavjudligi, biroq bu ularning mustaqil ma‘noli so‘zlardagi kabi leksik va grammatik ma‘no hosil qiladi degan fikr keltirib chiqarmasligini bilishimiz mumkin. Dunyo tilshunosligida “oraliq uchunchi” turkumlariga oid qarashlar turlicha bo‘lib, biz tilning turli xususiyatlarini inobatga olgan holda ko‘makchilashish jarayonini matn bilan bog‘laymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayfullayva R.R, Mengliyev B. R., Boqiyva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili.– T.: “Fan va texnologiya”, 2009.
2. Xojiyev A. O'zbek tilida morfologiyasi,morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. - T.: “Fan”, 2010.
3. Rahimov A. Leksik va semantik derevatsiya muommolari. - T.: “Navro'z”. 2011.
4. Rustamov T. Sof ko'makchilar (O'zbek tilida sof ko'makchilarning tarixiy taraqqiyoti). – T.: “Fan”, 1991
5. Safarov.Sh.Til nazariyasi va lingvo metodologiya- T.: “Bayoz”. 2015